



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 10-dekabr

695-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

### **Namangan viloyati hokimining 2024-yil 4-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Sanoat korxonalarining atrof-muhitga salbiy ta‘sirini kamaytirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 25-noyabrda 783-son qarori ijrosi haqida”gi 583-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Sanoat korxonalarining atrof-muhitga salbiy ta‘sirini kamaytirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 25-noyabrda 783-son qarori va Namangan viloyat hokimining 2024-yil 4-dekabr da 583-6-0-Q/24-son qarorini tumanda ijrosini ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

#### **QAROR QILAMAN:**

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 4-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Sanoat korxonalarining atrof-muhitga salbiy ta‘sirini kamaytirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 25-noyabrda 783-son qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 583-6-0-Q/24-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 31-mayda PF-81-son Farmoniga muvofiq:

a) tumanlarda (shaharlarda) atmosfera havosi ifloslanishi fon monitoringini amalga oshirish uchun avtomatlashgan 347 ta kichik stansiyalar (keyingi o‘rinlarda - avtomatlashgan kichik stansiyalar) Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi (keyingi o‘rinlarda - Ekologiya vazirligi) tomonidan tasdiqlangan texnik talablar hamda hududlarga joylashtirish xaritalari asosida Ekologiya vazirligi huzuridagi Gidrometeorologiya xizmati agentligi tomonidan o‘rnatilishi;

b) atrof tabiiy muhitni ifloslantiruvchi manbalarning monitoringini sifatli yuritish uchun atrof-muhitga ta‘siri bo‘yicha I va II toifalarga mansub xo‘jalik yurituvchi subyektlarga:

atmosfera havosiga ustuvor turg‘un (tashkillashtirilgan) ifloslantiruvchi manbalardan chiqadigan tashlanmalarni tahlil qiluvchi avtomatik monitoring stansiyalarini (keyingi o‘rinlarda - tashlamalarning avtomatik monitoring stansiyalari) o‘rnatish;

yuqori samaradorlikka ega chang-gaz tozalash uskunalari va lokal suv tozalash inshootlarini o‘rnatish hamda mavjudlarini modernizatsiya qilish;

sanitar himoya zonalarini avtomatik stasionar kuzatuv postlari (keyingi o‘rinlarda - avtomatik kuzatuv postlari) bilan jihozlash bo‘yicha majburiyatlar yuklanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinganligi;

quyidagilar:

Tuman va shaharlarda avtomatlashgan kichik stansiyalarni o‘rnatish bo‘yicha manzilli ro‘yxat 1-ilovaga muvofiq;

Atmosfera havosiga ustuvor turg'un (tashkillashtirilgan) ifloslantiruvchi manbalardan chiqadigan tashlanmalarni tahlil qiluvchi avtomatik monitoring stansiyalarini o'rnatish, sanitar himoya zonalarini avtomatik statsionar kuzatuv postlari bilan jihozlash hamda yuqori samaradorlikka ega chang-gaz tozalash uskunalari o'rnatish tarmoq jadvali 2-ilovaga muvofiq;

Atrof-muhitni ifloslantiruvchi oqovalari manbalarini yuqori samaradorlikka ega lokal suv tozalash inshootlari bilan jihozlash (qurish va (yoki) modernizatsiya qilish) tarmoq jadvali 3-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

belgilanishicha:

atrof-muhitga ta'siri bo'yicha I va II toifalarga mansub xo'jalik yurituvchi subyektlarda tashlamalarning avtomatik monitoring stansiyalari, chang-gaz tozalash uskunalari va lokal suv tozalash inshootlari o'rnatilganligi, shuningdek, sanitar himoya zonalarini avtomatik kuzatuv postlari bilan jihozlanganligini tekshirish tadbirlari Ekologiya vazirligi tomonidan nazorat organlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi vakolatli organ bilan oldindan kelishmasdan o'tkazilishi, bunda vakolatli organ Tekshiruvlarni elektron ro'yxatga olish yagona tizimida ro'yxatdan o'tkazish orqali tekshiruv boshlangan paytdan boshlab yigirma to'rt soat ichida majburiy ravishda xabardor qilinishi:

tashlamalarning avtomatik monitoring stansiyalari O'zbekiston Respublikasining O'zMSSt 194:2024 "Atmosfera havosi sifatini avtomatik monitoring stansiyalari. Umumiy texnik shartlar" hamda O'zMSSt 195:2024 "Tashlamalarning avtomatik monitoring stansiyalari. Umumiy texnik shartlar" milliy standartlariga muvofiq bo'lishi shartligi;

avtomatlashgan kichik stansiyalar (TIV TN kodi 9027), tashlamalarning avtomatik monitoring stansiyalari (TIV TN kodi 9027), avtomatik kuzatuv postlari (TIV TN kodi 9027), chang-gaz tozalash uskunalari (TIV TN kodi 8421) hamda lokal suv tozalash inshootlarining (TIV TN kodi 8421) texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini baholash hamda o'lchash vositalarini metrologiya tekshiruvidan o'tkazish Ekologiya vazirligi huzuridagi Davlat ekologik sertifikatlashtirish va standartlashtirish markazi tomonidan amalga oshirilishi;

tashlamalarning avtomatik monitoring stansiyalari, avtomatik kuzatuv postlari, chang-gaz tozalash uskunalari hamda lokal suv tozalash inshootlari Ekologiya vazirligi huzuridagi Davlat ekologik sertifikatlashtirish va standartlashtirish markazi tomonidan ishlab chiqilgan texnik topshiriq shartlar asosida xarid qilinadi va davlat ishtirokidagi korxonalariga xarid qilinadigan uskunalar va xizmatlar bo'yicha yetkazib beruvchilarga respublika hududida texnik servis xizmatini tashkil etish talabi qo'yilishi;

o'rnatiladigan yangi chang-gaz tozalash uskunalarning samaradorligi 99,5 foizdan, modernizatsiya qilinadigan mavjud uskunalarning samaradorligi esa 95 foizdan kam bo'lmasligi, shuningdek, o'rnatiladigan yangi hamda modernizatsiya qilinadigan mavjud lokal suv tozalash inshootlarining samaradorligi 80 foizdan kam bo'lmasligi lozimligi;

xo'jalik yurituvchi subyektlarning sanitar himoya zonalarida avtomatik kuzatuv postlari o'rnatiladigan joylar Ekologiya vazirligi tomonidan belgilanishi;

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Ekologiya vazirligining ushbu qarorga 1-ilovada nazarda tutilgan avtomatlashgan kichik stansiyalarni xarid qilish uchun talab etiladigan mablag'larni 2024-yil Davlat budjeti parametrlarida Turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armasiga yo'naltiriladigan transfertlar hisobidan Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlariga o'tkazib berish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilganligi;

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi Ekologiya vazirligi bilan birgalikda 2024-yil IV chorak yakuni bilan Turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari o'zlashtirilishidan kelib chiqib, mazkur jamg'armaga qo'shimcha mablag' ajratish yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritishi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bir oy muddatda ushbu qarorga 1-ilovadagi manzilli ro'yxat asosida tuman va shaharlarda avtomatlashgan kichik stansiyalarni o'rnatish uchun zaruratga ko'ra belgilangan tartibda Ekologiya vazirligining hududiy organlariga yer maydonlarini ajratishi;

Ekologiya vazirligi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda:

a) 2025-yil 1-martga qadar:

avtomatlashgan kichik stansiyalarning xarid qilinishi va manzilli ro‘yxat asosida o‘rnatilishini; o‘rnatilgan avtomatlashgan kichik stansiyalar tegishliligi bo‘yicha Gidrometeorologiya xizmati agentligining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hududiy markazlari hisobiga belgilangan tartibda o‘tkazilishini;

b) 2025-yil 1-martdan boshlab avtomatlashgan kichik stansiyalar ma‘lumotlari atrof tabiiy muhit davlat monitoringi tizimining yagona geoaxborot ma‘lumotlar bazasiga integratsiya qilinishini va uzluksiz faoliyat yuritishini ta‘minlashi;

Ekologiya vazirligi uch oy muddatda:

sanoat korxonalarida atmosfera havosiga ustuvor turg‘un (tashkillashtirilgan) ifloslantiruvchi manbalarni belgilash bo‘yicha uslubiyotni hamda Sanoat korxonalarida chang-gaz tozalash uskunalarning texnik holatini belgilovchi pasportlarni yuritish tartibini tasdiqlashi;

O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi bilan birgalikda tashlamalarning avtomatik monitoring stansiyalarini, avtomatik kuzatuv postlarini, chang-gaz tozalash uskunalarini hamda lokal suv tozalash inshootlarini ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish to‘g‘risidagi takliflarni ishlab chiqib, belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritishi;

O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining 4-ilovaga muvofiq ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. Namangan viloyat hokimining mazkur qarori bilan:

Shahar va tumanlar hokimliklari ikki hafta muddatda ushbu qarorga 1-ilovadagi manzilli ro‘yxat asosida tuman va shaharlarda avtomatlashgan kichik stansiyalarni o‘rnatish uchun zaruratga ko‘ra belgilangan tartibda viloyat Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasiga yer maydonlarini ajratish yuzasidan viloyat hokimligiga taklif kiritish;

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi (Q.Miraxmedov) tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda:

a) 2025-yil 1-martga qadar:

avtomatlashgan kichik stansiyalarning xarid qilinishi va manzilli ro‘yxat asosida o‘rnatilishini; o‘rnatilgan avtomatlashgan kichik stansiyalar tegishliligi bo‘yicha Gidrometeorologiya xizmati agentligining viloyat hududiy markazlari hisobiga belgilangan tartibda o‘tkazilishini;

b) 2025-yil 1-martdan boshlab avtomatlashgan kichik stansiyalar ma‘lumotlari atrof tabiiy muhit davlat monitoringi tizimining yagona geoaxborot ma‘lumotlar bazasiga integratsiya qilinishini va uzluksiz faoliyat yuritishini ta‘minlash ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

4. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi bo‘limi (T.Mamatqulov) va Davlat kadastrlar palatasi tuman bo‘limi ikki hafta muddatda ushbu qarorga 1-ilovadagi manzilli ro‘yxat asosida tumanda avtomatlashgan kichik stansiyalarni o‘rnatish uchun zaruratga ko‘ra belgilangan tartibda viloyat Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasiga yer maydonlarini ajratish yuzasidan viloyat hokimligiga taklif kiritilsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari X.Boylarov zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**A.Mansurov**